



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 343 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождидинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождидинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	
Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions.....	55
Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev	
Traffic congestion in Uzbekistan: causes and strategic solutions	60
Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva	
The relationship between corruption and economic growth.....	64
Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim	
Crisis management in the tourism industry	74
Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu	
Impact of the touristic indicators on the poverty rate.....	80
Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiyabonu, Durdona Bahodirova	
Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency	91
Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida	
The relationship between innovation and environmental emissions.....	98
Mamadiyeva Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza	
Green finance unlocked: innovations, challenges in Uzbekistan's perspectives.....	107
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna	
Turning the tide: how Uzbekistan can tackle its water crisis	115
Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov	
Drivers and losses of economic development of Tashkent: a desk study.....	125
Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durdona Davletova	
The digital economy in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	133
Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova	
Analysis of water consumption in Uzbekistan	139
Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durdona Zaynutdinova	



Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan	144
Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi	
iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	154
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni	167
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
Рост зеленой экономики во всем мире	172
Баймурадова Зилола Алишеровна, Бобуржон Бахриддинович Избосаров	
Raqamli iqtisodiyotda soliq boshqaruvining transformatsiyasi: soliq tizimining avtomatlashtirilishi samarasi	181
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Problems and prospects of developing small business in uzbekistan under the conditions of a green economy	187
Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov	
Turizm va mehmondo'stlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri	197
Anvarova Muhsinaxon Otabek qizi	
Zamonaviy mehnat bozorida axborot asimmetriyasi va uning oqibatlarlari	203
Tojialiye Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikni o'rni	206
Ergasheva Dilnoza Anvar qizi, Absamatov Asqar Ergashovich	
Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlari	211
Almuratova Nurlilo'Imasoy Naym qizi	
Xususiy sektorni moliyalashtirishning ichki va tashqi mexanizmlari va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishning ayrim istiqbolli tomonlari	214
Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi	
Yashil energetika - barqaror iqtisodiyotning kaliti sifatida	219
Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Umirov Islombek Furkatovich	
Moliyaviy regulatsiya va fiskal siyosat orqali xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishning nazariy asoslari	225
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
The importance of foreign investments in the economic development of the country	229
Rahmonov Samandar, K.J. Matkarimov	
Nostandart bandlik tushunchasi va uning mintaqani rivojlantirishdagi ahamiyati	235
Abdikarimova Zuxra Baxramovna, Saida Eshchanova	
O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish	240
Poyonov Otabek Abdiqaxxor o'g'li, Almardonov Muxamadi Ibragimovich, Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich	
Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyotni yo'lga qo'yishdagi muammolar va ularga innovatsion yondashuv	244
Ravshanbekova Madina Davlatboy qizi	
O'zbekiston xalqaro bozorga integratsiyalashuv jarayonida qishloq xo'jaligi ayrim mahsulotlarini yetishtirishning o'ziga xos jihatlari	247
O'razboyeva Farangiz Quadrat qizi, Ametov Quvandik Mamatjanovich	
The role of profitability in evaluating enterprise performance	251
Kholiqulov A.N., Khlomurodova S.A.	



Yaponiyada demografik muammo va uning iqtisodiyotga ta'siri.....	256
Mamatov Sardor Ilyasovich, Shoydulova Maftuna Zafar qizi	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish tajribalari.....	262
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna, Otamuratova Dilnoza Dilmurod qizi	
Sanoat korxonalarida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarining tahlili.....	265
Islomov Shuhrat Marufjonovich, Qarshiev Avazbek Sa'dullaevich	
Talabalarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishda Pareto qoidasini tadbqiq etishning muhim xususiyatlari.....	272
Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li, Asqarov Abrorjon Xayitmirzayevich	
Sanoat siyosatining nazariy va empirik asoslari.....	277
Sobirxo'jayev Xadyatillo, Hashimov P.Z.	
Yashil iqtisodiyot sharoitida energiya samaradorligining milliy iqtisodiyotga ta'siri.....	284
Allanazarov Ravshan Shavkat o'g'li, Samadqulov Muhammadjon	
Yashil biznes: Muqarrar kelajak va yangi imkoniyatlar.....	290
Shirinxon Axmadova, Xaydarov Nomozali Xolmirzayevich	
Katta ma'lumotlar tahlili va ularni biznes qarorlarini qabul qilishda samarali foydalanish.....	296
Allanazarov Ravshan Shavkat o'g'li, Samadqulov Muhammadjon	
Startaplar uchun marketing strategiyalari: Bozor tahlilidan brendgacha.....	301
Qodirov Sardor Qosimjonovich	
O'zbekiston sharoitida zamonaviy ishlab chiqarishni boshqarishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	305
Mo'ydinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi, Ismanov Ibrohim Nabiyeovich	
Suv resurslari ustidan nazorat va mintaqaviy siyosat: O'rta Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqlim ziddiyatlari.....	311
Qodirov Abubakr Nodirxon o'g'li, Egamberdiyev Muzaffar	
Tijorat banklarda zamonaviy ekotizim xizmatlarini takomillashtirish.....	320
Abduvaliyev Mirjalol Ikrom o'g'li, Po'latov Laziz Akmal o'g'li, Axmedov A.S	
Особенности кредитной поддержки субъектов предпринимательства в сфере туризма и факторы препятствующие его развитию.....	327
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовевна	
O'zbekistonda "Yashil iqtisodiyot" ga o'tishda kichik va o'rta biznesning o'rni va imkoniyatlari.....	333
Shoydulova Maftuna Zafar qizi, Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish.....	338
Qurbonov Xusrav Xudoyberdi o'g'li, Allayarov Suxrob Rustamovich	



YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH HAMDA DAVLAT IQTISODIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH

Qurbonov Xusrav Xudoyberdi o'g'li

TDIU Moliya fakulteti MMT-52/24 guruh 2-bosqich talabasi,

Email: xusrav2104@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Allayarov Suxrob Rustamovich

TDIU "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası dotsenti, i.f.d.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va davlat siyosatini takomillashtirish yo'llari tadqiq etiladi. Yashil iqtisodiyotning ekologik barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy tenglik kabi asosiy tamoyillari, shuningdek, yashil investitsiyalar, innovatsion texnologiyalar va energiya samaradorligi kabi barqaror o'sish omillari tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, O'zbekistonda "Yashil O'zbekistonga yo'l" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, davlatning yashil soliqlar va subsidiyalar siyosati, moliyaviy tizimlarni yashil iqtisodiyotga moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlari hamda mavjud muammolar va ularning yechimlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik, yashil texnologiyalar, yashil investitsiyalar, energiya samaradorligi, davlat siyosati, O'zbekiston, "Yashil O'zbekistonga yo'l" strategiyasi, ekologik moliya, innovatsion yechimlar.

Abstract: This article explores ways to achieve sustainable economic growth and improve state policies through the implementation of green economy principles in Uzbekistan. It analyzes the core principles of the green economy, such as environmental sustainability, efficient resource use, and social equity, as well as key growth drivers, including green investments, innovative technologies, and energy efficiency. The article also highlights measures implemented under the "Green Uzbekistan" strategy, government policies on environmental taxes and subsidies, the adaptation of financial systems to green economy requirements, and existing challenges along with their solutions.

Key words: green economy, sustainable economic growth, environmental sustainability, green technologies, green investments, energy efficiency, government policy, Uzbekistan, "Green Uzbekistan" strategy, green finance, innovative solutions.

Аннотация: В данной статье исследуются пути достижения устойчивого экономического роста и совершенствования государственной политики за счет внедрения принципов зеленой экономики в Узбекистане. Анализируются основные принципы зеленой экономики, такие как экологическая устойчивость, рациональное использование ресурсов и социальное равенство, а также факторы устойчивого роста, включая зеленые инвестиции, инновационные технологии и энергоэффективность. В статье также освещаются меры, реализуемые в рамках стратегии «Зеленый Узбекистан», государственная политика в области экологических налогов и субсидий, адаптация финансовых систем к требованиям зеленой экономики, а также существующие проблемы и их решения.

Ключевые слова: зеленая экономика, устойчивый экономический рост, экологическая устойчивость, зеленые технологии, зеленые инвестиции, энергоэффективность, государственная политика, Узбекистан, стратегия «Зеленый Узбекистан», экологические финансы, инновационные решения.

KIRISH

Global iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning kamayishi, suv resurslarining tanqisligi va havo ifloslanishining ortib borishi zamonaviy dunyo iqtisodiyoti oldida turgan eng dolzarb ekologik tahdidlardir. Jahon Iqlim Forumi



(World Climate Forum) ma'lumotlariga ko'ra, agar global harorat 2 °C ga oshsa, dunyo iqtisodiyotining yillik yo'qotishlari yalpi ichki mahsulotning 10 foizigacha yetishi mumkin¹ [1].

Shunday sharoitda ko'plab mamlakatlar "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasiga o'tishni tezlashtirishga intilmoqda. Bu model iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda, iqtisodiy faoliyatni ekologik xavfsizlik mezonlari asosida qayta tashkil etishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar sharhi yashil iqtisodiyot konsepsiyasi va uning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri masalasida keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilganini ko'rsatadi. Sternning iqlim iqtisodiyoti bo'yicha olib borgan tadqiqotlari iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta'sirini hisobga olish, uzoq muddatli o'sishni ta'minlash uchun siyosiy choralarni rejalashtirish zarurligini asoslab berdi. Jahon banki va OECDning "green growth" va "inclusive green growth" doirasidagi izlanishlari resurslardan samarali foydalanish, emissiyalarni kamaytirish hamda barqaror investitsiyalarni kengaytirishni davlat siyosati uchun muhim yo'nalish sifatida ilgari suradi.

O'zbekiston sharoitida olib borilgan xalqaro tahlillar davlat siyosatida yashil iqtisodiyot tamoyillarini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Jahon bankining "Towards a Greener Economy in Uzbekistan" hisobotida resurslardan foydalanishni optimallashtirish va qishloq xo'jaligi hamda energetika sohasida barqaror strategiyalarni joriy etish yo'nalishlari muhimligi qayd etilgan. Xalqaro energetika agentligining tahlillari esa energetika tizimini modernizatsiya qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng tatbiq etish iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi.

Yashil moliya vositalarini joriy etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar davlat kapitalining xususiy investitsiyalarni jalb etishda katalizator vazifasini bajarishi mumkinligini isbotlamoqda. Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan amalga oshirilgan dasturlar yashil obligatsiyalar, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va moliyaviy kafolatlar orqali ekologik loyihalarga katta hajmdagi investitsiyalarni yo'naltirish imkonini yaratmoqda. O'zbekiston misolida xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik kengayib, yashil moliya bozorining shakllanishi istiqbollari paydo bo'lmoqda.

Mahalliy tadqiqotlarda yashil hisob-hisob tizimini yaratish va ekologik ko'rsatkichlarni iqtisodiy statistikaga integratsiya qilish dolzarb masala sifatida ko'rib chiqilmoqda. Shuningdek, "yashil buxgalteriya", "ekologik menejment" va "energiya auditi" yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash, oliy ta'lim tizimida yangi mutaxassisliklarni ochish va xalqaro standartlarga mos qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirish zarurligi ta'kidlanmoqda. Bunday tashabbuslar mamlakatda malakali kadrlar bazasini shakllantirish va yashil iqtisodiyot jarayonini tezlashtirish uchun muhim shart hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumatining chiqindilardan energiya ishlab chiqarish va ekologik loyihalarni rivojlantirish tashabbuslari xalqaro hamjamiyat e'tiborini tortmoqda. Reuters axborot agentligi tarqatgan ma'lumotlarda mamlakat chiqindilarni qayta ishlash va energiyaga aylantirish loyihalariga yirik miqdorda investitsiyalar jalb etishni rejalashtirgani qayd etilgan. Shuningdek, yashil obligatsiyalar bozorining shakllanishi va ekologik moliya mexanizmlarining kengayishi kelgusida davlat siyosatining muhim ustuvorligi sifatida ko'rilmogda.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar O'zbekiston uchun uch asosiy yo'nalishni ta'kidlaydi. Birinchisi, moliyaviy mexanizmlarni diversifikatsiya qilish va davlat resurslarini xususiy investitsiyalarni jalb etishga yo'naltirish. Ikkinchisi, energetika va sanoat tizimlarini modernizatsiya qilish orqali texnologik yangilanishni jadallashtirish. Uchinchi yo'nalish esa ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirib, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Shu tarzda ilmiy izlanishlar va xalqaro tajribalar O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish siyosatini takomillashtirish uchun nazariy asos va amaliy yo'nalishlarni taqdim etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishi bo'yicha rasmiy statistika, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va ilmiy maqolalardan olingan ma'lumotlarga asoslanadi. Ma'lumotlar taqqoslash, trend tahlili va iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholash usullari orqali qayta ishlanadi. Analitik tahlil jarayonida sifat va miqdoriy yondashuv uyg'unlashtirilib, umumiy xulosalar ishlab chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekiston ham ushbu global jarayonlardan chetda qolmagan. 2022-yilda Prezident qarori bilan "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hujjat qabul qilinib, ushbu yo'nalishda aniq maqsadlar belgilandi.

1 World Climate Forum (2022). Global Economic Costs of Climate Change.



Mazkur qarorda yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va barqaror rivojlanishga erishish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilandi² [2].

Bu yondashuv milliy iqtisodiyotning ichki muvozanatini tiklash, xalqaro ekologik reytinglarda O'zbekiston o'rnini mustahkamlash va eng asosiysi, jamiyatda ekologik madaniyatni oshirish yo'lida muhim qadamdir. Shu bois maqolada yashil iqtisodiyotning mohiyati, barqaror iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi, davlat siyosatini takomillashtirish zarurati, mavjud muammolar va ularning yechimlari chuqur ilmiy tahlil qilinadi (1-rasm).



1-rasm. Yashil iqtisodiyot va davlat siyosati, muammo va yechimlar

Yashil iqtisodiyot atamasi ko'plab mamlakatlar taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismiga aylangan. U nafaqat ekologik xavfsizlikni, balki barqaror iqtisodiy o'sishni ham ta'minlovchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu iqtisodiy model bir nechta asosiy tamoyillarga asoslanadi.

Ekologik barqarorlik yashil iqtisodiyotning yadro tamoyillaridan biri bo'lib, tabiiy resurslar va ekotizimlarni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish g'oyasini o'z ichiga oladi. Bunda ishlab chiqarish va iste'mol faoliyatlari tabiatga zarar yetkazmasligi lozim. "Barqarorlik degani — atrof-muhit ehtiyojlari bilan inson ehtiyojlari o'rtasida muvozanatni saqlashdir" [3].

Misol uchun, sanoat korxonalarining chiqindi suvlari va havoga chiqaradigan gazlari ekologik normativlarga qat'iy rioya qilsa, biologik xilma-xillikni saqlab qolishga xizmat qiladi. Shu bois ko'plab davlatlar "yashil sertifikatlash" tizimini joriy etgan.

Yashil iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishni xomashyo sarfi hisobidan emas, balki resurslardan foydalanish samaradorligi orqali ta'minlash zarur. Bu degani — kam resurs bilan ko'proq mahsulot ishlab chiqarish, chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlash darajasini oshirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda sanoat tarmoqlarida energiya sarfi har yili 2–3 foizga qisqartirilmoqda. Bu esa nafaqat tejamkorlik, balki ekologik yuklamaning kamayishini ham anglatadi.

Yashil iqtisodiyot faqat ishlab chiqarish tizimini emas, balki inson omilini ham qamrab oladi. Ijtimoiy tenglik — barcha fuqarolar uchun teng ekologik imkoniyatlar va sog'lom yashash muhitini yaratishdir. Ayniqsa, ekologik og'ir hududlarda yashovchi aholiga subsidiyalar, yashil ish o'rinlari va ekologik ma'lumot beruvchi dasturlar orqali qo'llab-quvvatlash zarur.

O'zbekistonda bu tamoyil "yashil bandlik" dasturlari orqali amalda qo'llanilmoqda. Misol uchun, Qoraqalpog'istonda shamol elektr stansiyalari qurilishi jarayonida minglab ish o'rinlari yaratildi. Bu tashabbuslar ekologik xavfsizlik bilan ijtimoiy tenglikni uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda.

2 Qaror: "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2022-yil 10-dekabr. PQ-436-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6303230#-6303450>



Yashil iqtisodiyotga asoslangan barqaror iqtisodiy o'sish nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi, balki milliy iqtisodiy modelning uzoq muddatli barqarorligini ham kafolatlaydi. Shu maqsadda iqtisodiy taraqqiyotda quyidagi uch asosiy omil alohida ahamiyatga ega: yashil investitsiyalar, innovatsion texnologiyalar va energiya samaradorligi. Bu omillar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, yangi iqtisodiy paradigmaning tayanch elementlaridir.

Yashil iqtisodiyotga asoslangan barqaror iqtisodiy o'sish quyidagi asosiy omillar orqali shakllanadi:

Yashil investitsiyalar — ekologik xavfsiz texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni boshqarish va ekologik infratuzilmaga yo'naltirilgan mablag'lardir. Bu investitsiyalar nafaqat ekologik foyda, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ham kafolatlaydi.

Bu istiqbolli vazifalarning amaliy natijasi sifatida 2024-yil 21-may kuni Jahon banki guruhi, Abu Dhabi Future Energy Company PJSC (Masdar) va O'zbekiston hukumati 250 megavatt (Mvt) quvvatli quyosh fotoelektr stansiyasi hamda 63 Mvt quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimi (BESS) qurilishini moliyalashtirish bo'yicha kredit bitimlari to'plamini imzolashga erishdi. Mazkur loyihani amalga oshirish natijasida 75 mingga yaqin uy xo'jaliklari uchun ekologik toza elektr energiyasini ishonchli yetkazib berish imkoniyati yaratiladi. Bu Markaziy Osiyoda qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha birinchi tashabbus bo'lib, unda yangi quyosh elektr stansiyasi infratuzilmasiga elektr energiyasini saqlash tizimi ilk bor integratsiya qilinadi. Ushbu tizim energiya ta'minoti barqarorligini ta'minlash va qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishdagi uzilishlarni kamaytirish orqali energiya tizimining samaradorligi hamda moslashuvchanligini oshiradi.

Yashil texnologiyalar — chiqindilarni kamaytiruvchi, suv va energiyani tejovchi, atmosferaga zararli gazlar chiqishini cheklovchi texnologiyalardir. O'zbekistonning "Yashil innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" ushbu texnologiyalarni mahalliy sanoatda tatbiq etishga xizmat qilmoqda.

Energiya samaradorligini oshirish — ishlab chiqarishda kamroq energiya sarflab, yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish demakdir. Bu maqsad O'zbekistonda "2022–2026-yillarda energetika samaradorligini oshirish dasturi" orqali amalga oshirilmoqda. Yangi zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan sanoat qurilmalari 25–30 foiz kam energiya sarflaydi.

Yashil iqtisodiyotga o'tishda davlat siyosati markaziy ustunlikka ega bo'lib, ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida muvozanatni ta'minlash zarur. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan aniq fiskal, moliyaviy va me'yoriy yondashuvlarsiz yashil iqtisodiy o'sish mumkin emas. O'zbekiston uchun ham bu boradagi siyosiy yondashuvlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda.

Ekologik zarar yetkazuvchi faoliyatlarni iqtisodiy vositalar bilan cheklashda "yashil soliqlar" muhim ahamiyat kasb etadi. Bu soliqlar atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ishlab chiqarish subyektlariga moliyaviy yuk yaratadi. Shu bilan birga, "yashil subsidiyalar" orqali ekologik toza texnologiyalarni joriy etayotgan ishlab chiqaruvchilar qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, 2021-yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun asosida zararli modda chiqaruvchi korxonalarga to'lov mexanizmi joriy etildi. Bu orqali davlat nafaqat fiskal mexanizmlarni ekologik nazorat vositasi sifatida qo'llashni boshladi, balki atmosfera havosi ustidan davlat nazoratini yanada kuchaytirdi [4].

Barqaror yashil iqtisodiyot uchun moliyaviy sektor ham ekologik mezonlar bilan uyg'unlashgan bo'lishi lozim. Bunda yashil kreditlash, yashil obligatsiyalar chiqarish va ESG (environmental, social, governance) standartlari asosida risklarni baholash muhim mexanizmlar sifatida maydonga chiqadi. O'zbekistonda ham Markaziy bank tashabbusi bilan "yashil kredit" loyihalari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

"Moliyaviy tizim yashil iqtisodiyotga yo'naltirilmasa, iqtisodiy barqarorlik ham, ekologik xavfsizlik ham faqat niyat bo'lib qoladi", degan edi britaniyalik iqtisodchi N. Stern o'z izlanishlarida [].

Davlat siyosatining yana bir muhim jihati — ekologik standartlarni belgilash va monitoring tizimini takomillashtirishdir. Bugungi kunda atrof-muhit monitoringi uchun "Yagona ekologik axborot tizimi" joriy qilinib, sanoat obyektlarining chiqindilari real vaqt rejimida nazorat qilinmoqda. Bu esa korxonalarining javobgarlik hissini oshirib, davlatning nazorat salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yashil iqtisodiyotga o'tishda O'zbekiston oldida turli imkoniyatlar ochilmoqda. Bu jarayonni yanada tezlashtirish uchun moliyaviy resurslarni kengaytirish, texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish va malakali kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Siyosiy iroda va iqtisodiy vositalarning uyg'un qo'llanishi ushbu maqsadlarga erishishning asosiy kafolatidir.

Ekologik loyihalarga talab katta bo'lib, ular ko'pincha sezilarli boshlang'ich investitsiyalarni talab etadi. Shu bois, bank tizimida yashil tashabbuslarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish, davlat tomonidan "yashil jamg'arma"lar tashkil etish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni mustahkamlash va yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish istiqbolli yo'nalishlardir. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, ekologik moliya sohasida innovatsion mexanizmlarning joriy etilishi barqaror rivojlanish uchun zarur sharoit yaratadi.

Sanoat infratuzilmalari va kommunal tizimlarda mavjud imkoniyatlar texnologik yangilanish uchun keng maydon ochmoqda. Xususan, energetika sohasida zamonaviy yechimlarni joriy etish, texnoparklar faoliyati orqali



innovatsiyalarni ishlab chiqish va xorijiy ilg'or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik xavfsizlikni ham kuchaytiradi.

Yashil iqtisodiyot rivojida kadrlar salohiyatini oshirish eng muhim omillardan biridir. "Yashil buxgalteriya", "ekologik menejment" va "energiya auditi" kabi yo'nalishlar bo'yicha yangi mutaxassisliklarni oliy ta'lim muassasalarida ochish, xalqaro standartlarga mos qayta tayyorlash dasturlarini yo'lga qo'yish va xususiy sektor bilan qo'shma ta'lim loyihalarini amalga oshirish orqali mamlakatda yuqori malakali kadrlar bazasi shakllanishi kutilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga asos bo'lib, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun davlat siyosati aniq va ilmiy asoslangan yo'nalishlarda olib borilishi zarur. Yashil iqtisodiyot modeli iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy farovonlikni birlashtirib, yangi rivojlanish yo'llarini ochmoqda. Mamlakatda yashil investitsiyalarni rag'batlantirish, ekologik moliyaviy tizimni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida mavjud tizimli to'siqlarni yengish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va texnologik innovatsiyalarni joriy etish orqali o'sish sur'atlarini oshirish mumkin. O'zbekistonning "Yashil O'zbekistonga yo'l" strategiyasi va boshqa tashabbuslari mamlakatni ekologik barqaror rivojlanish yo'lida muhim bosqichga olib chiqish salohiyatiga ega. Kelgusi yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni mamlakatni nafaqat barqaror iqtisodiy o'sishga, balki global ekologik talablar bilan uyg'unlashishga ham olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Climate Forum (2022). Global Economic Costs of Climate Change.
2. Qaror: "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2022-yil 10-dekabr. PQ-436-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6303230#-6303450>
3. Meadows, D. (1972). Limits to Growth.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" (yangi tahrir), 2021-yil 21-aprel, O'RB-683-son. <https://lex.uz/docs/-5388561#-5405981>
5. Stern, N. (2006). The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge University Press.
6. OECD (2021). Financing Sustainable Development: Insights from the OECD. OECD Publishing.
7. PR-WBG-Bukhara-Solar-210524-UZ.pdf <https://www.worldbank.org>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
